

Sana:13.02.2013

Sinf: 8-“G”

Fan: Davlat va huquq asoslari.

Mavzu: Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi

Dars maqsadi:

O'quvchilarga huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi haqida ma'lumot berish;

O'quvchilarni huquqiy bilimli, mustaqil fikrli, Vataniga va milliy istiqlol

g'oyalari sadoqatli komil insonlar sifatida tarbiyalash;

O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini va huquqiy madaniyatini o'stirish.

Dars turi: Yangi bilim va tushunchalarni shakllantiruvchi.

Dars usuli: Savol-javob, "Domino", "Klaster"

Dars jihozi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi

3. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun"

4. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi va Oila kodeksi.

5. Mavzuga doir slayda.

Dars shiori: "Adolat har ishda hamrohingiz va dasturingiz bo'lsin"

Kutilayotgan natija:

1. Huquqiy munosabatlarning sub'yekti, ob'yekti, huquq layoqati va muomala layoqati haqida tushunchaga ega bo'lish.

2. Huquq manbalari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

3. Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilishga odatlanish

4. O'z hatti-harakatlarini qonun doirasida boshqara olish

5. Normativ hujjatlar bilan ishlashga odatlanish.

Asosiy tushunchalar:

1. Huquqiy munosabatlar

2. Yuridik fakt

3. Obyekt

4. Subyekt

5. Subyektiv huquq

6. Yuridik majburiyat

7. Huquq layoqati

8. Muomala layoqati

9. Yuridik pretsedent

10. Huquqiy odat

11. Normativ-huquqiy hujjat

12. Qonunchilik

13. Xalqaro shartnoma

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism. O'quvchilar diqqati darsga jalb qilinadi. Sinfda ishchi muhiti vujudga keltiriladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Darsning bu bosqichi "Domino" o'yini orqali amalga oshiriladi.

Start!

1. Huquq tizimi nima?
2. Jamiyatdagi mavjud huquq normalarining bir butun voqelik sifatida harakatlanishi.
- .Nima uchun huquq tizimi sohalarga ajratiladi?
3. Ijtimoiy munosabatlarning xima-xilligi hisobga olinadi. Huquqiy tartibga solish predmeti nima?
4. Ijtimoiy munosabatlar.
- Mamlakatning ichki huquq tizimi tarmoqlari bu-
5. Moddiy huquq tarmoqlari va protsessual huquq tarmoqlari. Eng asosiy huquq sohasini ayting.
6. Konstitutsiyaviy huquq.
- Protsessual huquq sohasi bu-
7. Sudlarning faoliyatini tartibga soladi.
- Protsessual huquq sohalari necha turga bo'linadi?
8. Fuqarolik –protsessual, Xo'jalik= protsessual va jinoyat –protsessual huquq sohalari.
- Huquq institutlari deb nimaga aytiladi?
9. Bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi.

III. Yangi mavzu ustida ishlash .

Darsning bu bosqichida o'qituvchi reja asosida slayddan foydalanib mavzuni bayon qiladi.

O'quvchilar e'tibori asosiy huquqiy atamalarga qaratiladi.

“Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi” qonun ,Oila va Mehnat kodekslari huquqiy normalaridan foydalaniladi.

IV. Mavzuni mustahkamlash. Darsning bu bosqichi savol-javob va test savollari orqali amalga oshiriladi.

Savollar:

1. Huquqiy munosabatlar deb nimaga aytiladi?
2. Huquqiy munosabatlarning elementlarini ayting.
3. Huquq layoqati nima?
4. Muomala layoqati nima?
5. Huquq layoqati va muomala layoqati necha yoshdan vujudga keladi?
6. Emansipatsiya nima?
7. Huquq manbalariga nimalar kiradi?
8. Huquqiy odat nima?
9. Yuridik pretsedent nima?
10. Normativ-huquqiy hujjat nima?
11. Normativ-huquqiy hujjat turlarini ayting?
12. Normativ-huquqiy hujjat belgilarini ayting.
13. Xalqaro shartnoma nima?
14. Eng muhim huquq manbaini ayting.
15. Qonunchilik nima?

Test savollari :

1. Huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar...

- A. Axloqiy munosabatlar; **B. Huquqiy munosabatlar;**
C. Qonuniy munosabatlar.
2. Huqiy munosabatlar elementlarini ko'rsating.
A. Obyekt, subyekt;
B. Subyektiv huquq va yuridik majburiyat;
C. Barcha javoblar to'g'ri.
3. Huquqiy munosabat obyekti....
A. Huquqiy munosabat ishtirokchilari harakati nimaga qaratilganligi.
B. Huquqiy munosabat ishtirokchilari .
C. Huquq va majburiyat egalari.
4. Huquq layoqati va muomala layoqati qachon vujudga keladi?
A. Huquq layoqati insonning tug'ilishi bilan muomala layoqati voyaga yetgach;
B. Huquq layoqati 16 yoshdan, muomala layoqati 18 yoshdan;
C. Huquq layoqati 18 yoshdan, muomala layoqati 16 yoshdan.
5. Yuridik pretsedent nima?
A. Sudning huquqbuzarga nisbatan chiqargan qarori;
B. Sudning umummajburiy kuchga ega qarori;
C. Normativ huquqiy hujjat.

V. Yakunlarni chiqarish.

1. Mavzuga va o'quvchilarning javoblariga xulosa yasaladi.
2. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.
3. Huquqiy atamalar o'quvchilr daftariga yozdiriladi.

V. Baholash.

VI. Uyga vazifa.

- 1. Mavzuni o'qib qoidalarni yodlash.**
- 2. Normativ hujjatlar bilan ishlashga o'rganish.**
- 3. Mavzu savollariga javob yozib kelish.**
- 4. Yangi mavzu bilan tanishib kelish.**